SHARQ VA G`ARB OLIMLARI QARASHLARIDA TASAVVUF PSIXOLOGIYASI TASNIFI

Adizov Bekzod Baxtiyorovich
Shofirkon tuman
"Xoja Orif Revgariy Mohitobon" masjidi imom noibi
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.22828411

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq va G'arb olimlarining tasavvuf psixologiyasiga oid qarashlari psixologik tahlil asosida yoritiladi. Xususan, Imom G'azzoliy, Jaloliddin Rumiy, Bahouddin Naqshband kabi Sharq mutafakkirlarining qalb holatlari, nafsni poklash, ruhiy kamolotga erishish borasidagi qarashlari zamonaviy psixologiya prinsiplari bilan qiyoslab tahlil qilinadi. Shuningdek, U. Jeyms, Leuba, Flurnua kabi G'arb olimlarining diniy-tasavvufiy holatlarni psixologik yondashuv orqali o'rganish usullari ko'rib chiqiladi. Maqolada tasavvufiy qarashlarning inson ruhiyati, axloqiy yetuklik, ongni boshqarish, va ma'naviy uyg'onishdagi ahamiyati ilmiy asosda ochib beriladi.

Kalit so'zlar. Tasavvuf psixologiyasi, Sharq olimlari, G'arb olimlari, nafs tahlili, ruhiy tarbiya, komil inson, qalb holatlari, G'azzoliy psixologiyasi, Jaloliddin Rumiy, Bahouddin Naqshband, e'tiqod psixologiyasi, meditatsiya va tafakkur, Mindfulness (ongli hushyorlik), diniy psixologiya, ma'naviy intellekt

Kirish. Tasavvuf psixologiyasi - shaxs e'tiqotasavvufi, uning tasavvufiy dunyoqarashini, tasavvufiy kechinma hamda tuyg'ularini, e'tiqod qilish turlarini psixologik malakaning nozik jihatlarini va komil inson tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlarini, chuqurroq qilib aytadigan bo'lsak, e'tiqod qiluvchi shaxsning ichki dunyosini o'rganuvchi fan sanaladi. Tasavvuf psixologiyasi e'tiqod qiluvchi kishi hayotining ma'naviy - ma'rifiy jihatlarini va tasavvufiy qadriyatlarini qamrab oladi. Tasavvuf psixologiyasi shaxsning subyektiv dunyosiga kirib keladi. Kechinmalar, hissiyotlar, axbarotlarni qabul qilish va uni qayta ishlash, ruhlantrish, irodaning kuchi, tafakkur qilish qobiliyati, xotira va uning barcha anglab bo'ladigan va anglab bo'lmaydigan qismlari shular jumlasiga kiradi. Bunda faqat tasavvufdor shaxslarning ichki kechinmalari emas balki tasavvufdor bo'lmagan shaxslarning ham psixologik holatlari o'rganildi. Sharq falsafasi va ayniqsa tasavvuf ilmi inson ruhiyatining nozik jihatlarini o'rganishda chuqur ma'naviy asos bo'lib xizmat qilgan. Tasavvuf psixologiyasi – bu insonning ruhiy kamolot sari yo'lini, ichki dunyosining poklanishini va nafs ustidan g'alaba qilish yo'llarini tushuntiruvchi tizimli qarashlardir. Aynan shu sababli Sharq olimlarining tasavvufiy qarashlarini psixologik nuqtayi nazardan o'rganish nafaqat tarixiy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Imom Abu Homid al-G'azzoliy (1058–1111) o'zining mashhur "Ihyo ulum ad-din" asarida inson qalbining holatlarini tahlil qilgan. U nafsni to'rt darajaga ajratadi: Nafsi ammora – yovuzlikka buyuruvchi nafs; Nafsi lavvama – o'zini ayblovchi, pushaymon bo'luvchi nafs; Nafsi mulhama – ilhomlangan nafs; Nafsi mutma'inna – osoyishta, Allohga yaqin nafs. Bu tasnif zamonaviy psixologiyadagi insonning ichki holatlari, "superego" va "id" o'rtasidagi kurash, yoki ruhiy konfliktlar tushunchasiga yaqin turadi [1].

Jaloliddin Rumiy (1207–1273) tasavvufiy she'riyat orqali inson ruhining Allohga intilishi, muhabbat orqali o'zini anglash va ichki uyg'onish holatlarini tasvirlaydi. U inson qalbidagi ishqni –

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ilohiy energiya deb biladi. Rumiyga ko'ra, "yig'lash" yoki "dard" inson ruhining uyg'onish belgisi, bu esa psixologik katarzis (ruhiy poklanish) jarayonini bildiradi [2].

Bahouddin Naqshband (1318–1389) Naqshbandiya tariqatining asoschisi bo'lib, insonning tashqi faoliyati bilan ichki dunyosi uyg'unligini targ'ib qiladi. Uning "xilvat dar anjuman" tamoyili – odamlar orasida yurib ham Alloh bilan bo'lish – diqqat, tafakkur va ruhiy markazlashuv (psixologik kontsentratsiya)ni anglatadi. Bu holat zamonaviy mindfulness (ongli hushyorlik) tushunchasiga juda yaqin turadi [3].

Ushbu soha olimlaridan biri M.Mamatov shunday ta'kidlaydiki: "fanning predmetini umumiy inson qalbida joylashgan va turli ko'rinishlar bilan yuzaga chiqadigan tasavvufiy e'tiqod va amallaridir deb belgilansa bo'ladi [4].

Olimlarning aytishicha, odam geni ma'lumotlarni tashish xususiyatiga ega ekan. Ya'ni erkakning har bir urug'ida 15 megabaytgacha ma'lumot bo 'lar ekan. Bu degani sizning har bir qilgan ishingiz o 'z geningizda ma'lumot bo'lib saqlanib qolar ekan. Demakki, biz qilgan har qanday yaxshi - yomon amallar shunchaki unutilib ketmaydi. Balki genimiz xotirasida saqlanib qoladi va kelgusida zurriyodlarimizda fe'l o'laroq shakillanishi mumkin. Shuning uchun yaxshi amallarimizni ko'paytirshimiz lozim, chunki har qanday amalimiz farzandimizda aks etishi mumkin. Insonni eng avvalo, go'zal qiladigan narsa bu uning xulqidir. Abdullox ibn Amr (r.a) dan rivoyat qilinadi:

"Nabiy sollallohu alayhi vasallam: "Sizlarning yaxshingiz husni xulqingizdir", dedilar". Demak, har bir shaxsning xulqi go'zal bo'lsa, bir-biroviga siylayi rahim qilsa, doim yaxshilik ulashsa, nafsni poklasa unda axloq sayqal topadi [5].

Tasavvuf psixologiyasida Xitoy mutafakkiri Konfutsiyning qarashlari quyidagicha. "O'zingga ravo ko'rmagan narsani o'zgaga ham ravo ko'rma" iqtibosi, uning g'oya va mafkurasining eng yuqori pog'onasida turadi. Konfutsiyning shaxs o'z –o'zini anglashda qanday fikrlarga ega bo'lmog'i hamda qanday nazariy ilmlarni egallamog'i haqidagi bayoni insonning diqqatini o'ziga jalb qilmasdan qo'ymaydi.

- buyuk cho'qqilarga erishishni o'z oldiga eng muhim maqsad qilishi;
- saxiy va boshqalarga xushmuomalali bo'lishi;
- yurtiga va yon - atrofdagilarga doimo yaxshilik qilishi;
- o'z majburiyatidan shaxsiy malaka va ko'nikmasini oltasavvufga qo'yish;
- mamlakat hamda insonlarning shaxsiy farovonligi va tinchligi borasida qayg'urishi [6]

Zardushtiylik ta'limotida ma'rifat va bilim yo 'lida harakat qilishda katta e`tibor qilingan. Zardushtiylik ta'limotida axloqiy "o 'z-o 'zini tashkillashtirish" tafakkur yo 'lidir. "Har bir shaxs o'z-o'zini rivojlantirish uchun o'z-o'zini tuzatishi va tartibga keltirshi darkordir. Shuning uchun har bir shaxs o'zini tartibga keltirishning o 'zgacha turlaridan foydalanadi. Axloqiy, ilmiy, irodaviy, tanqidiy, aqliy me'yorlar, dunyoqarash, axborot, ong, orzu-istak kabilar tartibga solish vositalaridir. Inson o 'z-o 'zini boshqarish vositalari - ong, tafakkur, iroda, qiziqish, talabni ham vujudga keltirdi, bu hodisalar boshqarish funksiyalarini bajaradilar. Shularsiz inson o 'z-o 'zini tashkillashtira olmaydi. Shaxsning ruhiy-ma'naviy o 'z-o 'zini tashkillashtirishida muhim rol o'ynovchi bu aloqadorlik, ya'ni ma'naviy va ruhiy uyg'unlik uning ijtimoiylik, aqllilik, hissiylik, axloqiylikni ta'minlaydi [7]. Zardushtiylikning bu singari ma`naviy - axloqiy tamoyillari va me'yorlari davrlar o 'tib ko'plab oqimlar va yo'nalishlaming, konsepsiyalaring ma`naviy zamini bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, Sharq va G'arb olimlarining tasavvuf psixologiyasi borasidagi qarashlari inson ruhiyatining chuqur tahliliga asoslanadi. Imom G'azzoliy tomonidan taklif etilgan nafs darajalari, Rumiyning qalb uyg'onishi va muhabbat orqali ilohiy yuksalishga intilishi, Bahouddin

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Naqshbandning "xilvat dar anjuman" tamoyili — barchasi insonning ichki dunyosini sayqallashga qaratilgan yuksak ma'naviy-psixologik tamoyillardir. Ularning qarashlari zamonaviy psixologiyadagi ongni boshqarish, ichki muvozanat, psixik barqarorlik va mindfulness kabi tushunchalar bilan uyg'unlashadi. G'arb olimlari esa tasavvufiy tajribalarga ilmiy yondashib, ularni ruhiy holat, diniy kechinmalar va motivatsiya manbai sifatida o'rganishga harakat qilgan Demakki, tasavvuf psixologiyasi — nafaqat tarixiy-madaniy meros, balki inson salomatligi, axloqiy poklik va ruhiy barqarorlikni ta'minlovchi zamonaviy psixologik vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Xulosa bilan birgalikda quyidagi tavsiyalar ham b erildi: Tasavvuf psixologiyasini o'rganish zamonaviy psixologiya fanining ichki resurslarga asoslangan yondashuvini chuqurlashtiradi. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarida ushbu yo'nalishda maxsus kurslar joriy etilishi maqsadga muvofiqdir. G'azzoliy, Rumiy va Naqshband kabi mutafakkirlarning asarlarini psixologik yondashuv asosida sharhlash va zamonaviy psixoterapiya bilan integratsiyalash — yangi davr talabidir. Yoshlar tarbiyasida tasavvufiy qadriyatlar asosidagi ruhiy tarbiya va nafsni boshqarish metodlarini keng joriy etish, ularning axloqiy immunitetini mustahkamlashga xizmat qiladi. Zamonaviy psixologlar tasavvufiy konsepsiyalarni amaliy mashg'ulotlarda, ayniqsa stress, xavotir, depressiya kabi ruhiy holatlarni davolashda qo'llash yo'llarini ishlab chiqishlari lozim. Ilmiy tadqiqotlar davomida Sharq va G'arb yondashuvlarining o'zaro farqlari va umumiyliklarini solishtirish orqali tasavvuf psixologiyasining universal modelini ishlab chiqish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Imom G'azzoliy. Ihyo ulum ad-din. Dar al-Fikr, 1993.
2. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy Ma'naviy. Intishoroti Sohib, 2005.
3. Bahouddin Naqshband. Maqomoti Baho'uddin. Buxoro, 1998.
4. Akramova F.A. "Insoniy munosabatlar psixologiyasi". T. „Shams-A", 2010.-B.68
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. «Ruhiy tarbiya» I juz "Poklanish" , 2020y.B-.219
6. Konfutsiy. Suhbat va mulohazalar. - T:. Yangi asr avlodi, 2014,-B20
7. Yo'Idoshev J., Hasanov S. Avestoda axloqiy ta`lim iy masalalar. -T .: O'qituvchi, .2012,-B 56-58

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.